

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK:6P2.15.7:371(575.1)

Berdibekov Beknazar Baxtiyor o'g'li

**AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI
QO'LLASH SHAROITIDA KOLLEJDA TA'LIM JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Zangiota oziq-ovqat kolleji misolida)**

5A230107 – Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.n., dots. Xoshimxodjaev Sh.I.

Toshkent-2018

Mazkur dissertatsiya ishida ilg'or axborot kommunikatsiya texnologiyalarining hozirgi kundagi ahamiyati va ular orqali yuqori ijtimoiy samaradorlikka erishish yo'llari, xususan, Zangiota oziq-ovqat kasb-hunar kollejida ilg'or axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish usullari tahlil qilinib, kasb-hunar kollejlari faoliyatida masofaviy ta'limni rivojlantirish istiqbollari tadqiq etilgan.

In this dissertation the main idea is the importance of advanced information communication technologies and ways to achieve high social efficiency in particular implementing of advanced information communication technologies in the Zangiota Vocational educational college and its effective ways of utilizing, in consequence prospect of distance education in Vocational educational college were investigated.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari"
kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

N^o 5 -sonli bayonnoma « 15 » NOVE 2018y


Ilmiy rahbar: доц. Xoshimxodjayev Sh.


imzo

18.06.18

sana

Taqrizchi: dots. Azamatov A.


imzo

18.06.18

sana

Talaba: Berdibekov B


imzo

18.06.18

sana

sana

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI.....	8
1.1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy tushuncha va tamoyillari.....	8
1.2. Ilg'or axborot kommunikatsiya texnologiyalarining hozirgi kundagi ahamiyati.. ..	21
1.3. Ilg'or axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasi orqali yuqori ijtimoiy samaradorlikka erishish yo'llari.....	29
I BOB bo'yicha xulosa.....	35
II BOB. ZANGIOTA OZIQ-OVQAT KASB-HUNAR KOLLEJIDA ILG'OR AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA ULARDAN FOYDALANISH TAHLILI	37
2.1. Zangiota oziq-ovqat kollejida tadbqiq qilingan ilg'or axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ularning qulayliklari.....	37
2.2. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini Zangiota oziq-ovqat kolleji o'quv jarayonida qo'llashning omilli tahlili.....	45
2.3. O'qitish tizimlarini kompyuterli qo'llab-quvvatlash.....	50
II BOB bo'yicha xulosa.....	60
III BOB. ZANGIOTA OZIQ-OVQAT KOLLEJI FAOLIYATIDA ILG'OR AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.	62
3.1. Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning ayrim muammoli jihatlari.....	62
3.2. Zangiota oziq-ovqat kasb-hunar kolleji faoliyatida masofaviy ta'limni rivojlantirish istiqbollari.....	69
III BOB bo'yicha xulosa	82
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	84
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	91
ILOVALAR.....	95

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. XX asrning 90-yillaridan boshlab axborotlashtirish sohasi keskin rivojlanib ketdi. XXI asr axborotlashtirish va kommunikatsiya asri, deyish an'anaga aylandi. Axborotlashtirish nima va uning vazifalariga nimalar kiradi, uning asosiy xususiyatlari qanday, degan savollar jamiyatdagi har bir fuqaroni qiziqtirishi tabiiy. Chunki inson faoliyatini axborotsiz tasavvur qilish qiyin.

Kundalik turmushda turli ko'rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli (audio), rasmlil, video va boshqa axborotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Har bir turdagi axborot bilan ishlash (yig'ish, saqlash va h.k.) uchun turli texnik xarakteristikalariga ega bo'lgan axborot qurilmalari kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2018 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlanganlaridek: "Telekommunikaviya uskunalari, kompyuter texnikasi va mobil telefonlar, keng turdagi maishiy elektronika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi zamonaviy korxonalar tashkil etilmoqda. Iqtisodiyotimizning deyarli barcha tarmoqlari modernizatsiya qilinib, amalda texnologik jihatdan yangilanmoqda."¹

Davlatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek «Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi chora-tadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz o'zimizga shuni aniq tasavvur etishimiz kerakki, iqtisodiyotning barcha sohalariga, kundalik hayotimizga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish bo'yicha tub va ijobiy ma'nodagi portlash effektini beradigan o'zgarishlarni amalga oshirmasdan turib, istiqboldagi maqsadlarimizga erishish qiyin bo'ladi. Biz qisqa vaqt mobaynida nafaqat axborot xizmatlari ko'rsatishning ko'plab turlari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etishimiz, balki axborot kommunikatsiya

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh Mirziyoyevning mamlakatimizni 2018 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2018 yil. 18 yanvar.